

# UMUMIY O'RTA VA O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI

Umumiy o'rta ta'limning maqsadi ishtirokchilarni madaniy va maishiy, xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan fan asoslarining tizimli bilimlari, mahorat va malaka bilan qurollantirishdan hamda maxsus ta'lim olish (kasb-hunar, texnik, o'rta, oliy) imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

## Umumiy o'rta ta'lim tizimi

O'zbekistonda majburiy, bepul, muddati 9 yildan iborat bo'lgan umumiy o'rta ta'lim mavjud bo'lib, u boshlang'ich (1-4- maktab sinflari) va o'rta (5-9- maktab sinflari) ta'limga bo'lingan.



Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan bilim va malakaning, savodxonlik asoslarining shakllantirilishiga yo'naltirilgan. Birinchi sinfga bolalar 6-7 yoshdan qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim O'zbekistonda majburiy, bepul va barchaga taalluqli hisoblanadi. Bu maktab yoshiga etgan barcha bolalar umumiy yoki maxsus (nogiron bolalar va rivojlanishdan orqada qolgan bolalar) boshlang'ich maktabga borishlarini bildiradi. Bolalarni boshlang'ich ta'limga jalb qilish mos keluvchi yoshidagi bolalarning 100% tashkil qiladi. Bola boshlang'ich maktabni tugatar ekan, u o'qish, yozish va hisoblash mahoratiga ga bo'lishi kerak. O'quvchiga nazariy fikrlash elementlari, o'rgatilgan harakatlarni boshqarish mahorati singdirib boriladi. Nutq madaniyati, shaxsiy gigiena asoslari, sog'lom hayot tarzi va jamiyatda o'zini tutish bilimlari ham berib boriladi. O'quv fanlarining sifat va tirkibi boshlang'ich maktabda, maktab turi va o'qitish sharoitlariga ko'ra o'zgarib turadi.

Maktabning barcha birinchi sinf o'quvchilari bepul o'quv kitoblari va o'quv asboblari bilan ta'minlanadi. 1996 yildan beri kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan 1-9- sinf o'quvchilari har yili davlat byudjeti hisobidan o'quv ashyolari hamda qishki kiyim komplektlari bilan ta'minlanadi. O'zbekistonda boshlang'ich va o'rta ta'lim tashkil qilinishi va tarkibiga ko'ra bir - biri bilan bevosita bog'liq. Har bir umumta'lim maktabi ikkala pog'onada umumiy o'rta ta'limni amalga oshiradi. Bu boshlang'ich maktabda bitiruvchilarning to'liq hisobini olib borishni va umumiy o'rta ta'lim tizimida uzlusizlikni ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim kerakli bilim hajmi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tashkiliy mahorat va amaliy tajriba poydevorini qo'yib, boshlang'ich professional yo'nalishni va ta'limning keyingi pog'onasini tanlashda ko'maklashadi.

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limning mantiqiy davomi bo'lsa ham, tarkibiy sifatiga va o'qitish uslubiga ko'ra farq qiladi. Umumiy o'rta ta'lim ishtirokchining ijtimoiy mavqeini belgilab olishga bo'lgan ishtieq, qiziqish va qobiliyatlarini, uning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydi. O'quvchi o'rta maktabda fan asaslari bo'yicha tizimli bilimlarni oladi. Ta'lim jarayonida keng duneqarash shakllanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatini paydo bo'ladi. Xalqning boy ma'naviy va madaniy me'rosi bilan tanishtirib borish orqali bolada atrofdagi olamga bo'lgan g'amxo'rlik hissi uyg'otib boriladi. O'rta maktab o'quvchilar uchun maktab fanlarini mustaqil o'rganishga keng imkoniyatlar ratib beradi. O'rta ta'limning tarkibiy qismiga majburiy va qo'shimcha komponentlar kiradi.

Majburiy komponent davlat ta'lim standartlari bilan aniqlanadi va ishtirokchining minimal kerakli tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Uning muvaffaqiyati o'rta ta'lim muassasalari tomonidan

kafolatlanadi. Bu komponent davlat va jamiyat buyurtmasi, shaxsning qiziqish va talabi asosida belgilanadi.

Qo'shimcha komponent ishtirokchining talab va qobiliyatidan, maktabning moddiy-texnik va kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasidan, territoriyaning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan talablardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qo'shimcha o'quv vazifalar hajmi Xalq Ta'lim Vazirligi tomonidan belgilangan normativlar asosida taqsimlanadi. Maktabning o'quv tarbiyaviy ishlari, Xalq Ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan, Bazisli uquv rejasi va umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlari orqali amalga oshiriladi.

O'quv fanlari, umumiy ta'lim dasturlari ro'yxati, o'quv vaqtining davomiyligi Bazisli uquv reja va umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari bilan belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim qatnab o'qish va bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bitiruvchilarga davlat attestatlari, alohida muvoffaqiyatlarga erishganlarga esa imtiyozli attestatlari beriladi.

Mustaqil ravishda umumiy ta'lim dasturini o'zlashtirgan ishtirokchilarga, Xalq ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Eksterna haqidagi nizomga asosan, eksterna tartibda attestatsiyadan o'tish huquqi beriladi.

To'liq ma'lumot: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz), [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)

O'rta maxsus ta'lim kasb-hunar ta'limining bir shakli bo'lib, asosiy maqsadi ishlab chiqarishning birinchi bo'g'inidagi tashkilotchi va ish boshqaruvchilarni, oliy toifali mutaxassislarning yordamchilarini, yuqori malaka va ko'nikmalarini talab qiluvchi ma'lum bir turdag'i ishni mustaqil bajara oluvchi o'z ishining ustalarini bo'lgan – texnik, agronom, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, feldsher, stomatolog, konsertmeyster kabi mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. O'rta maxsus ta'lim mutaxassislari qatoriga kasbiy tayyorgarlikning yuqori bosqichi talab etiladigan balet, sirk artistlari, ayrim badiiy mutaxassislar ham kiradi.

O'rta maxsus ta'lim umumiy o'rta ta'limda amaliy va nazariy bilimlar bilan bir qatorda kasb-hunarga oid bo'lgan malaka va ko'nikmalarini ma'lum bir sohada rivojlantirishga qaratilgan.

Bo'lajak mutaxassislarga ta'lim muassasasi va o'zlariga ma'qul kasbni tanlashda yordam berish uchun e'tiboringizga quyidagi kasb-hunar tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umum davlat [tasniflagichini](#) havola qilmoqdamiz.

#### O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi

Uch yilga mo'ljallangan majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) uzlusiz ta'lim tizimining mustaqil ko'rinishi hisoblanadi. U O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "[Kadrlar tayyorlash milliy dasturi](#)" asosida amalga oshiriladi.

#### O'rta mahsus kasb-hunar ta'lim tizimi

O'rta mahsus ta'lim  
(akademik litseylar)

Kasb-hunar ta'limi  
(kasb-hunar kollejlari)

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi 2009 yildan boshlab majburiy hisoblanib, umumiyo'rta ta'lim matabining bitiruvchilari xohishlariga binoan o'qish yo'nalishini – akademik litsey yoki kasb-hunar kollejini tanlaydilar. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarni mehnat bozorida o'z o'rinalarini topishlari uchun aniq bir yo'nalishda ham umumta'lim fanlari bo'yicha bilim berib, ham kasb-hunar ta'limini beradi.

Umumiyo'rta ta'lim negizida har bir bitiruvchi o'qish yo'nalishi bo'yicha yoki kasb-hunar ta'limi kollejini, yoki akademik litseyni tanlashi mumkin.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi kunduzgi ko'rinishda ikki yo'nalishda akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlari amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejlari kasb ta'limi bilan bir qatorda akademik litseylar kabi o'rta maxsus ta'lim ham berib, bu keyinchalik yoki uzlucksiz ta'limni davom eettirish, yoki bo'lmasam mutaxassisligi bo'yicha ish bilan shug'ullanish imkonini beradi.

Akademik litsey –o'qish uch yilga mo'ljallangan o'rta maxsus yo'naltirilgan o'quv dargohi bo'lib, davlat ta'lim standartiga mos ravishda o'quvchilarning bilimlari aqliy salohi tini oshirishga qaratilgan, ularning imkoniyatlari va qiziqishlari asosida yo'naltirilgan holda chuqurlashtirib beriladi. Akademik litseylarda o'quvchilar ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy ravishda - gumanitar, tabiiy fanlar yo'nalishi tarzida tanlaydilar.

Akademik litseylar oliy o'quv yurtlari qoshida ochilgan bo'lib, qoidaga muvofiq asosiy e'tibor oliy o'quv yurtlarining yuqori malakali o'qituvchilarini litseydagi o'quv jarayoniga jalb etish, kerak bo'lsa OO'ning tajriba maydonlari, kutubxonalaridan litsey o'quvchilarining foydalanishlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iboratdir.

Akademik litseydagi yo'naltirilgan, chuqurlashtirilgan o'quv jarayoniga zarur bo'lsa ilmiy – tadqiqot muassasalari ham jalb qilinadi. Bunday holatlarda Oliy va O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Vazirligining ruxsati bilan kelishilgan tarzda ish olib boriladi.

Kasb-hunar kollejlari – o'rta maxsus va kasb ta'limini beradigan o'quv dargohi bo'lib, unda uch yil mobaynida ta'lim olinadi. Davlat ta'lim standartlariga muvofiq kollejda umumiyo'rta ta'lim va chuqurlashtirilgan holda kasb-hunar o'rgatilib, malaka shakllantiriladi. Kollej bitiruvchilari yo'nalishlari asosida bir yoki bir nechta kasbni tanlashlari mumkin.

Kasb-hunar kollejlari uchun mahalliy hokimiyatning bajaruvchi organlari tomonidan rivojlangan korxona yoki muassasalardan vasiylar tayinlanadi. Shuningdek, kollej yo'nalishiga mos yo'nalishga ega bo'lgan oliy o'quv yurti tomonidan vasiylilik qilinadi.

O'quv muassasasining maqsadi o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi berishdir

Kollejda ta'lim tizimining dual tizimi asosida ikki tomonlama kasb va ta'lim dasturlari asosida bilim beriladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda umumiyo'rta ta'lim va kasb ta'limi dasturlari quyidagi tarzda q'llanadi:

- Uchta bosqichda.
- Har bir bosqichda o'quv jarayoni nihoyasiga yetgach, o'quvchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida nazorat o'tkaziladi.
- O'quv yili ikki semestrdan iborat hamda o'quv ta'tillari 10 yoki 12 hafta davom etadi.
- O'quvchilar guruhlarga o'qitish kurslari, yo'nalishlari asosida ajratiladi.
- Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda auditoriya mashg'ulotlari uchun akademik soat 40 minut qilib belgilangan. Zarurat yuzasidan mashg'ulotlar juftlik soatlarga birlashtirilishi mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olganligi haqidagi quyidagi namunada diplom beriladi:

- Akademik litseylar uchun fanlar o'qitilganligini yo'nalishini ko'rsatilgani holda.
  - Kasb-hunar kollejlari uchun mutaxassisligi bo'yicha tanlagan malakasini ko'rsatilgan holda.
- To'liq ma'lumot: [www.markaz.uz](http://www.markaz.uz)